



UDK: 902.03(575.1)

Yakubdjan MUXAMEDOV,
O‘zbekiston milliy universiteti dotsenti v.b
E-mail: mukhamedov-2017@mail.ru

T.f.d., prof. O‘.Abdullayev taqrizi asosida

KHOREZM DURING THE PERIOD OF THE WESTERN TURKIC KHAGANATE

Annotation

This article examines the socio-economic and political processes of Khorezm during the Early Medieval period, when it was part of the administrative system of the Western Turkic Khaganate, based on an analysis of archaeological and written sources. The article also explores the dynasties that ruled Khorezm and issues related to their origin through an analysis of scholarly opinions and interpretations.

Key words: Khvalis, chjaovu, Xosyun, Khorezm, afrig, jamuk, Tuke, Ashkharasuys, Azkachvar, chagon, Tangshu, Turkasabos, abdal, Turk shad, Istemi.

ХОРЕЗМ В ПЕРИОД ЗАПАДНО-ТЮРКСКОГО КАГАНАТА

Аннотация

В данной статье на основе анализа археологических и письменных источников освещаются социально-экономические и политические процессы в Хорезме, который в раннесредневековый период входил в состав системы управления Западно-Тюркского каганата. В статье также рассматриваются династии, осуществлявшие управление в Хорезме, и вопросы, связанные с их происхождением, на основе анализа научных взглядов и суждений исследователей.

Ключевые слова: Хвалис, чжаову, Хосюн, Хорезм, африг, джамук, тюке, Ашхарасуйц, Азкачвар, чагон, Тан-шу, туркасабос, абдал, тюркский шад, Истеми.

G‘ARBIY TURK XOQONLIGI DAVRIDA XORAZM

Annotatsiya

Mazkur maqola ilk o‘rta asrlar davrida G‘arbiy Turk xoqonligi boshqaruvi tarkibiga kirgan Xorazmning ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy jarayonlariga oid ma‘lumotlar arxeologik va yozma manbalar taxlili asosida yoritib berilgan. Maqolada Xorazm boshqaruvida bo‘lgan sulolalar va ularning kelib chiqishi bilan bog‘liq masalalar ilmiy tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan fikr mulohazalar taxlili asosida tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: Xvalis, chjaovu, Xosyun, Xorazm, afrig‘, jamuk, tuke, Ashxarasuys, Azkachvar, chag‘on, Tan-shu, turkasabos, abdal, Turk shad, Istemi.

Kirish. Ilk o‘rta asrlar davri tarixini o‘rganishda, G‘arbiy Turk xoqonligining tarkibida bo‘lgan Choch, Ustrushona, Sug‘d, Farg‘ona, Toxariston kabi hukmdorliklar qatori Xorazmning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlari tarixini o‘rganish bugungi kundagi dolzarb mavzulardan biri xisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. (Literature review) mavzuni yoritib berishda S.P.Tolstov, Y. Bichurin, V.A. Livshis, T. Mkrtchyan. I. Markvart, B.I. Vaynberg, O.I. Smirnova, N.V. Pigulevskaya, Z. V. To‘g‘on, G‘. Boboyorov, S. Gömeç Frye R.N kabilarni ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalanilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani yoritishda, ma‘lumotlarni umumlashtirish, tarixiy tahlil, tizimli solishtirish kabi metodlar asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. G‘arbiy Turk xoqonligi tashkil topgunga qadar Markaziy Osiyoning janubiy mintaqalari, ikkidaryo oralig‘i (Amudaryo – Sirdaryo) Eftalitlar saltanati tarkibida bo‘lib, uning qo‘l ostidagi konfederativ (yarim mustaqil) hukmdorliklar: Choch, Farg‘ona, Samarqand, Kabudon, Maymurg‘, Kushoniya, Kesh, Buxoro va boshqalarni Chjaovu xonadoniga oid sulolalar boshqarib kelganlar[1]. Xitoy yilnomalarida Xorazm “Xosyun” nomi bilan keltirilib, ularning hukmdorlari ham Chjaovularga mansub bo‘lgan[2]. Biroq, tarixda Xorazmni Afrig‘iylar sulolasi boshqarib kelgan, degan qarashlar mavjud[3]. Bu masalani aniqlash uchun alohida tadqiqotlar olib borish lozim.

Ilk o‘rta asrlarda Xorazmning siyosiy hayoti va boshqaruvidagi sulolalari haqida I. Markvart va Z.V. To‘g‘onlar xorazmliklarni kelib chiqishini qadimgi eroniy sulolaga islomgacha hukmronlik qilgan Abdallar (Eftalitlar)ga bog‘liq [4] degan qarashlarni ilgari surganlar. “Tan-shu” yilnomasida Xosyun (Xorazm)ning boshqaruvchilari Chjaovu sulolasidan ekanligi qayd qilingan[5]. B.I. Vaynberg fikricha Xitoy yilnomalari va numizmatik materiallarda Xorazm antik davrda Chjaovu sulolasi keyinchalik esa, Afrig‘iylar sulolasi tomonidan boshqarib kelingan[6]. Ushbu xulosani keyinchalik G‘. Boboyorov ham qo‘llab quvvatlagan[7]. Manbalarda nafaqat Samarqand balki Xorazm, Buxoro hukmdorlarini chjaovular tashkil qilgan[8].

Mazkur masala bo‘yicha Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy “O‘tmish xalqlaridan qolgan yodgorliklar” asarida Xorazmda yigirmadan ortiq hukmdorlar haqida ma‘lumot keltirib, ularning asli Eron shohi Kayxusrav o‘g‘li Siyovushga bog‘liq ekanligini keltiradi[9]. Biroq, G‘. Boboyorov Beruniy tilga olib o‘tgan hukmdorlarning barchasi ham bitta sulolaga mansub bo‘lmagan. Aksincha ular turli sulolalarga mansub bo‘lgan, deya ularning Chjaovu sulolasiga tegishli ekanligini asoslab bergan[10].

Arxeolog olim S.P. Tolstov esa, Beruniy asarida keltirilgan hukmdorlardan biri haqidagi ma‘lumotlariga asoslanib, Turkasabos yoki Turkasbos nomli hukmdorni Turk xoqonligining boshqaruvchi xonadoni vakillaridan bo‘lib, yunon manbalarida tilga olinagan tuksanaf bilan bir ekanligini ta‘kidlab o‘tgan[11]. O.I. Smirnova esa, Turkasbos ismini

ma'nosi "Turk lashkarining sohibi" deb talqin qilgan[12]. Shu o'rinda Turksanafni ismi turkiychada asli turk shad bilan bir bo'lib, Turk shad Istemi yabg'u xoqonning o'g'li xisoblanadi. Shad bu xoqonning o'g'li va yaqin jiyalariga berilgan unvon bo'lib, mazkur unvon egalari harbiy qo'shinda o'ng minglik qo'shin boshlig'i vazifasini ham bajargan [13]. Yuqorida tilga olib o'tilgan ma'lumotlardan kelib chiqib Xorazmni antik davrda Chjaovular so'ngra ilk o'rta asrlar davriga kelib Afrig'iylar boshqargan degan xulosaga kelish mumkin. G'. Boboyorovning asarida Afrig'iylarni kelib chiqishini Chjaovular sulolasining bir tarmog'i sifatida etibor qaratgan[14].

Shu o'rinda Chjaovular xususida O.I.Smironovning tangalarga uchraydigan Chjaovu tushunchasini kelib chiqishini eroniy sulola vakillariga oidligiga bog'lashi haqida o'z mulohazasini berib o'tgan[15]. Xitoy yilnomalaridagi chjaovu atamasini Tan sulolasi xitoycha (t'siä miu) va Xan davridagi arxaiik xitoycha (tiog miwo) [16] o'qilishi islomdan oldingi aslzoda tabaqa nomi ostida ك وم – "jamuk" ("qimmatbaho tosh" ma'nosida) keltirgan[17]mazkur masala bo'yicha B. G'oibov Chjaovu sulolasining kelib chiqishida eroniy qabilalarning ham ta'siri katta ekanligini keltirib o'tgan[18].

Yuqorida bildirib o'tilgan masalaga e'tibor qaratsila, Chjaovular va Afrig'iylarning qaysi bir sulolasi boshqarganligi xaqida muammo yuzaga keladi. Mazkur muammo bo'yicha kelgusi yillarda alohida tadqiqot olib borish kerak.

G'arbiy Turk xoqonligi Xorazm vohasini qachondan boshlab o'z tarkibiga qo'shib olganligi xaqidagi ma'lumotlar deyarli manbalarda saqlanib qolmagan. Xorazmga oid Xitoy yilnomalarida Tu-kyuelar Ida (eftalit)ni mag'lub etganidan so'ng, uning qo'l ostidagi erlarni sosoniylar va turklar egallab oladilar[19]. Xorazm esa, turklar qo'l ostiga o'tib ketadi. Amudaryo Sosoniylar va turklar o'rtasida chegara vazifasini o'tab bergan.

Xorazmning turklar tarkibiga kirganligi xaqidagi ma'lumotlar Vizantiya manbalarida uchraydi. Xususan, 568-yilda Vizantiyaga yuborilgan xoqon elchilari qaydnomalarida eftalitlar butunlay mag'lubiyatga uchratilib, qo'l ostidagi hududlar turklar qaramog'iga o'tganligini ta'kidlab o'tganlar[20]. Turklar qo'shini eftaliylarni mag'lubiyatga uchratgach ularni qo'l ostida bo'lgan ikki daryo oralig'idagi erlar (Amudaryo va Sirdayo) Turk xoqoligi tassarufiga o'tadi.

Xorazmning Turk xoqonligi ta'sir doirasida ekanligi xususida Vizantiyalik tarixchi Fiofanning fikriga ko'ra, turk xoqonligi forslar qo'l ostidagi savdo markazlari yirik shahar va portlarni qo'lga olishi barobarida Amudaryo erlari ayniqsa Kaspiybo'yi mintaqalardagi shaharlarni ham egallab olganliklarini keltirib o'tadi[21]. N.V. Pigulevskaya turklarning yirik tijorat savdo shahar markazlarining qo'lga kiritishi natijasida iqtisodiy qudratining ortishiga sabab bo'lgan[22]. Turklar Xorazmni qo'shib olgach mustaqil siyosat olib borish uchun ularga eltobarlik unvonini berad. Bu unvon boshqa hukmdorlar kabi boshqaruvda teng huquqda ekanligini anglatgan.

Yunon manbalarida Vizantiya elchilari 560- 570-yillarda Turk xoqoni huzuriga borib, qaytish vaqtida vassal hukmdorliklarning ham Vizantiyaga elchi yuborishga izn so'rab xoqonga murojaatida xoqonlik faqatgina vassal hukmdorliklardan Xvalis (Xorazm)liklarga ruxsat berganligi qayd qilingan[23]. Xorazm buyuk ipak yo'lining shimoliy tarmog'ida joylashgan bo'lib, Urol, volga bo'ylari Kavkaz bilan qadimdan boshlab, savdo aloqalari olib boranligi, hamda boshqa xalqlarga qaraganda Vizantiya imperiyasiga qadar bo'lgan yo'nalishlarni yaxshi bilganligi sababli Vizantiya bilan savdo qilish vakolatiga ega bo'lganlar.

G'arbiy Turk xoqonligi qo'l ostidagi hukmdorliklarning geografik joylashuvda vohaning tabiiy resurslarga boy yoki aksincha kam ekanligidan kelib chiqilgan bo'lib,

Sharqiy Turkistondagi nisbatan tor vodiylarda joylashgan hukmdorliklar keng yaylovlarga ega bo'lmay, ko'p sonli aholi yashashi uchun unchalik mos emas edi. Xoqonlik bu erlarga ma'lum bir aholi guruhini ko'chirib kelishi yoki qo'shin joylashtirish imkoniyati oz ekanligi bilan baholash mumkin. Shunga o'xshash holat Amudaryo – Sirdayo oralig'idagi ayrim voha hukmdorliklarida ham ko'zga tashlanadi.

G'arbiy Turk xoqonligi Xorazm vohasini boshqaruvida mahalliy sulola – Afrig'iylar Eftalitlar davlati davrida bo'lgani kabi, G'arbiy Turk xoqonligi davrida ham o'z boshqaruvini saqlab qolib, xoqonlikka asosan o'lpon to'lab turish bilan cheklanib, ayrim unvon va epitetlarni hisobga olmaganda turkiy davlatchilik tizimi u darajada ta'sir ko'rsatmagan. Buni, shunday izohlash mumkin:

Birinchidan, Xorazm vohasi xoqonlikning markaziy hududi – Yettisuvdan uzoqda joylashganligi,

Ikkinchidan Xorazmga xavf soladigan biror yirik siyosiy kuchning yo'qligi bilan bog'liq edi. Xorazm vohasi janubi-g'arbiy yo'nalishda Sosoniylar Eroni hududiga nisbatan yaqin edi, biroq bu hududdagi Marv, Dehiston, Gurgon kabi voha hukmdorliklari ham xoqonlikka bo'ysunardi.

Xorazm vohasi G'arbiy Turk xoqonligi uchun muhim markazlardan biri bo'lib kelgan.

Birinchidan Buyuk ipak yo'lining shimoliy tarmog'ini o'z nazoratida ushlab turish;


Ikkinchidan Urol volga bo'ylari Kavkaz xududlari hamda Vizantiya iperiyasi bilan iqtisodiy madaniy aloqalar bog'lovchi ko'priik vazifasini bajarganligi bilan izohlash mumkin.

Xorazmni xoqonlik tarkibida ekanligi borasida quydagi ma'lumotlar xam muhim ahamiyat kasb etadi. Xorazmdagi Xumbuztepa yodgorligidan topilgan sopol sirtida qadimgi xorazm yozuvida twrk so'zi va Sharqiy eron tilidagi bitiklarda ham twrk yozuvining uchrashi[26]. Mazkur davr G'arbiy turk xoqonligi tarkibida bo'lgan degan xulosaga kelishda muhim asos bo'lib hizmat qilgan





Ilk o'rta asrlarda Xorazmda Cho'r, Chabish, Tutuq, unvonidagi shaxslar nomi zikr etilgan bo'lib, ushbu unvon egalari Turk xoqonligi davrida harbiy harakatlar vaqtida ma'lum bir vazifa bajarishlari uchun berilgan. Ushbu unvonlar xususida Mahmud Qoshg'ariy Chabishni "jangda saflarni tartibga soluvchi, dam olish vaqtida esa askarlarni zulm qilishdan asrovchi shaxs" sifatida talqin qilgan[27]. Shuningdek, Chabish unvon egasi xabarchi qo'mondon, elchilarni yuborish vakolatlari xaqida ham tilga olingan[28]. Yaponiyalik olim Yo. Yutaka esa Chabish unvonini eftalitlarga oid bo'lib, turklar tomonidan o'zlashtirilgan unvon sifatida munosabat bildirib o'tgan[29].

Xorazmda oromiy yozuvga hos mahalliy yozuv turi tarqaladi. Tuproqqaladan topilgan hukmdor arxivlari, sopol, tangalar va saroy devorida yozuv namunalari mavjud ekanligi keltirilgan[30]. Ushbu yozuv namunalari G'arbiy Turk xoqonligi davrida ham amalda bo'lgan.

G'arbiy Turk xoqonligi boshqaruvi ostida bo'lgan hududlar: Choch, Farg'ona, Xorazm, Ustrushona, Toxariston, Buxoro kabi konfederativ davlatlarda mustaqil ravishda o'z tangasiga ega bo'lganlar[31]. Ilk o'rta asrlardan boshlab, Sug'd singari Xorazmda ham tanga zarb qilish yo'lga qo'yilgan[32]. Zarb qilingan tangalarda afrig'iylarga oid unvon va mansablar qatori turklarga oid nomlar ham keltirilgan.

Xorazm tangalarida  tamg'a va yozuvlar uchragan[33]. Ushbu tamg'a shakli va yozuvlarga ko'ra Xorazm boshqa hududlarga nisbatan mustaqil sulola tomonidan boshqarganligini anglatadi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga qo'shimcha tarzda olim G'.Boboyorov Xorazm turk xoqonligi tarkibidagi alohida voha sanalib, uning o'z boshqaruvchi sulolasi bo'lganligi, tangalarida turli afsonaviy suyuje'tlar tasviri aks etishi,

shuningdek, tangalarda uchraydigan  tamg'aning keyinchalik turklarga hos bo'lmagan  Chog'oniyon hukmdoriga hos ekanligini keltirib o'tadi [34]. U Toxariston tangalari bilan taqqoslagach  -  Vaynbergning Abu Rayxon Beruniyning 22 nafar hukmdorlaridan biri wzk'nšw'r (Azkachvar, arab manbalarida Chag'on) [35] nomi ostida keltirilgan shahs aslida Xorazm hukmdorlari ekanligini qayd etish mumkin.

Xorazmda ilmiy izlanishlar olib borgan arxeolog olim S.P. Tolstov Tuproqqa xarobasidan aniqlangan bir frizga alohida e'tiborini qaratib o'tadi. Ushbu frizda hukmdorning taxtda o'tirishi uning yonida esa qora tanli xizmatkorlarning joy olganligi qiziq bir holat hisoblanadi [36]. Demak, mazkur

davrda Xorazmda hukmdorlar o'z xizmatkorlarini qo'shni davlatlar Sharqiy Hindiston yoki extimolga ko'ra, Afrika hududlaridan yollaganliklarini anglatishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, Xorazm vohasi ilk o'rta asrlarda G'arbiy turk xoqonligi tarkibida bo'lsa-da, boshqaruvda afrigiylar sulolasining o'z o'rinda qolishi, tanga pul zarbiga egaligi, qo'shni hududlar Urol volga, Kavkaz va Vizantiya imperiyasi bilan savdo aloqalarini erkin olib borishi, uning iqtisodiy madaniy va siyosiy jihatdan yuksalgan. Bu xolat ularning nomigagina vassal ekanligini faqatgina soliq to'lab turish bilan cheklangan deya xulosa qilish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. - М., 1970. - С.37., Бобоёров Ф. Б. Турк хоқонлиги даврида Хоразм // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Тошкент: Урганч., 2018. - Б. 49.
2. Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В III-х томах. М.-Л., 1950. Т. II. - С.310; Б.И. Вайнберг Монеты древнего Хорезма. - Из-во. Наука. - М.1977.- С.85-100. Chavannes E. Documents sur les Tou-Kiue (Turks) occidentaux / Сборник трудов Орхонской экспедиции. СПб., 1903. Вып. 6. - P.134. Бобоёров Ф.Б. Турк хоқонлиги даврида Хоразм.... - Б. 49.
3. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар / Таржимон А. Расулов / Танланган асарлар. II-жилд. – Тошкент: Фан, 1968. - Б.71-72. Бобоёров Ф.Б. Турк хоқонлиги даврида Хоразм- Б. 49.
4. Togan Z.V. Umumi Türk Tarihine Giriş. - İstanbul, 1981. – S. 60.
5. Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. М.-Л., 1950. Т. II. - С. 310; Б.И. Вайнберг. Монеты древнего Хорезма. Из-во. Наука. М.1977.- С.85-100 Chavannes E. Documents sur les Tou-Kiue (Turks), Вайнберг. Б.И. Монеты древнего Хорезма. Из-во. Наука. - М.1977. - С.85-100
6. Бобоёров Ф.Б. Турк хоқонлиги даврида Хоразм. // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Тошкент: Урганч. 2018. - Б. 49.
7. Бичурин Н.Я. Собрание сведений. ... II. – S. 311-318.
8. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. I-жилд. – Тошкент: Фан, 1968. -Б.71-72.
9. Бобоёров Ф.Б. Турк хоқонлиги даврида Хоразм. // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Тошкент: Урганч., 2018.- Б. 50
10. Толстов С.П. Древний Хорезм. М.: Издательство МГУ, 1948. - С.188; Зуев Ю.А. Ранние тюрки: очерки истории и идеологии. Алматы: Дайк-пресс, 2002. – С. 190.
11. Смирнова О.И. Каталог монеты с городища Пенджикент. М.: Изд-во восточной лит-ры, 1963. - С. 28.
12. Gömç S. Kök Türk Tarihi. - Ankara: TTK, 1997. - S.25,92, Бобоёров Ф.Б. Турк хоқонлиги даврида Хоразм. // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Тошкент: Урганч 2018. - Б. 50
13. Бобоёров Ф.Б. Турк хоқонлиги даврида Хоразм. // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Тошкент: Урганч, 2018. - Б. 48-55
14. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. ... – С. 25.
15. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. ... – С. 28.
16. Frye R.N. Jamuk, sogdian peal? // JOAS, 1952. – S. 105-106.
17. Фоибов Б. Суғд конфедерациясининг шаклланиши, тараққиёти ва танназули. - Самарқанд 2017. – Б.101.
18. Бичурин Н.Я. Собрание сведений ... - Т. II. - С. 229.
19. Феофилакт Симокатта. История // Великие степ в античных и византийских источниках. Сборник материалов. Сост. и ред. А.Н. Гаркавца. Алматы: Баур, 2005. - С. 624; Комар А. Наследие тюркских каганатов в Восточной Европе // Мадени мұра - Культурное наследие. Астана, 2009. № 1. - С. 100-101.
20. Феофан Византийский..... 493 б, Гумилев Л.Н. Қадимги Турклар..... - Б.55.
21. Пигулевская Н. В. Византийская дипломатия и Торговля шелком в V-VII ВВ. Византийский временник.\\ М. Академик Изд.- 1947. - С.71.
22. Шювен П. О Византийских посольствах к первым тюркским правителям Согда (Проблемы ономастики и топонимики) // ОНУ. 1995. № 1–3. С. – 33-38.
23. Тер-Мкртчян Л.Х. Армянские источники о Средней Азии V-VII вв. - М.: Наука, 1979. - С. 60–61. Бобоёров Г.Б. Турк хоқонлиги даврида Хоразм // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Тошкент: Урганч, 2018. - Б. 50.
24. Бобоёров Ф.Б. Турк хоқонлиги даврида Хоразм. // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Тошкент: Урганч, 2018. - Б.50.
25. Лившиц В.А., Мамбетуллаев М.М. Острак из Хумбузтепе // Памятники истории и литературы Востока. – М., 1986. С.39.
26. Кошғарий Махмуд. Туркий сўзлар девони (Девону-луғот ит-турк) / Таржимон ва нашрга таёрловчи С.М. Муталлибов. III томлик. – Тошкент: Фан, 1960–1963. Divanü Lügat-itTürkTercümesi. Cilt I-IV. Çev. B. Atalay, TDK yayınları. – Ankara, 1985. Cilt I. - S.349.
27. Donuk A. Yeski Türk devletlerinde idari-askeri unvan ve terimler. - İstanbul,1988. - S.93; Буниязов З.М. Государство Хорезмшахов - Ануштегинидов (1097–1231). М.: Наука,1986. - С. 91.
28. Yoshida. Y. On the Origin of the Sogdian Surname Zhaowu and Related Problems // JA. – Paris, 2003. – No. 1–2 (291). - P. 35–67.
29. Сагдуллаев А.С ва бошқа... Ўзбекистон тарихи. I-қисм, – Тошкент: Фан, - 2019. – Б.263.
30. Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монеты. ... – С.324-336; 336-341; 371-382; Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. – М.: Наука, 1977,
31. Фоибов Б. Суғд конфедерациясининг шаклланиши, тараққиёти ва танназули. – Самарқанд. док дис.... 2017. - Б.62.
32. 33,34,35. Бобоёров Ф. Ғарбий турк хоқонлиги тарихи ва танга пул тизими. - Тошкент: Тафаккур авлоди. 2021 – Б.83
33. Толстов С.П. Хорезмская археолого – этнографическая АН СССР 1948. Изв. АН СССР. Серия отд. Ист. II философ., т.6. №3, - С.257-258, Пигулевская Н. В. Византия на путях в Индию (Из истории торговли Византия с Востоком в IV-VII вв.). – М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1951.- С. 72